O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMASEVTIKA INSTITUTI

FARMATSIYA FAKULTETI, QAYTA TAYYORLASH KURSI

TOKSIKOLOGIK, ORGANIK VA BIOLOGIK KIMYO KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Qo`lyozma huquqida

DILMURODOVA ZEBINISO DILMUROD QIZI

# MAVZU: ALBENDAZOL DORI VOSITASINI BIOLOGIK SUYUQLIKLARDAN EKSTRAKSIYA SHAROITLARINI O`RGANISH

Ilmiy rahbar: farm.f.n., dots. Usmanaliyeva Z.O`.

Taqrizchi: farm.f.n.,dots. Jalilov.F.S.

Toshkent -2014

**ТОШКЕНТ ФАРМАЦЕВТИКА ИНСТИТУТИ**

Farmatsiya факультети Toksikologik organik va biologik
кафедраси Dorivor o'simliklar йўналиши 1/1 гурухи

Тасдиқлайман
Кафедра мудири Yuldashev J.A
2004 йил «25» may

**БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ БЎЙИЧА ТОПШИРИҚ**

Талаба Dilmurodova Zebinisa Dilmurod qizi
(фамилияси, исми, шарифи)

1. Битирув ишининг мавзуси Albendazol dori vositasini biologik suyuqliklardan ekstraksiya sharoitlarini o'rganish

200 й. «___» _____ кафедра мажлисида маъқулланган.

2. Битирув иши топшириш муддати 05.06.14

3. Битирув ишни бажаришга доир бошлангич маълумотлар Albendazol dori vositasini turli pH muhitlarda ekstraksiya sharoitlarini o'rganish va sud-kimyo ekspertiza laboratoriyalari uchun moslashtirilgan tahlil sharoitlarini ishlab chiqishdan iborat.

4. Ҳисоблаш-тушунтириш ёзуваларининг таркиби (ишлаб чиқиладиган масалалар рўйхати) Qon va pechon tarkibidan albendazol preparatini ajratib olish jarayonlarini o'rganish. Ajratmalardan albendazolni Yu.Q.X usullarda va spektrofotometrik tahlil jarayonlarini amalga oshirish

5. Чизма ишлар рўйхати (чизмалар номи аниқ кўрсатилади)
3 ta chizma
1- chizma. Turli konsentratsiyalarda tayyorlangan albendazolning o'rta xlorid kislotadagi ultrabinafsha spektri
2- chizma: Albendazol standart eritmasining optik zichlikni konsentratsiyaga bog'liq chizmasi
3 Albendazolni qoldiq miqdorini ekstraksiyalashga organik muhitni va pH muhitining ta'sirini o'rganish

6. Битирув иши бўйича маслаҳатчи(лар):

| № | Бўлим мавзуси | Маслаҳатчи ўқитувчи ф.и.ш. | Имзо, сана | |
|---|---|---|---|---|
| | | | топшириқ берилди | топшириқ бажарилди |
| | Biologik suyuq-liklardan ekstrakt-suya olish | Ismoilova Z | aprel | may |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

7. Битирув ишини бажариш режаси

| № | Битирув иши босқичларининг номи | Бажариш муддати (сана) | Текширувдан ўтганлик белгиси |
|---|---|---|---|
| 1 | Kirish | Oktabr | Bajardi |
| 2 | Adabiyotlar sharhi | Oktabr - dekabr | Bajardi |
| 3 | Amaliy qism | yanvar - may | Bajardi |
| 4 | Xulosa va adabiyotlar ro'yxati | may | Bajardi |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

Битирув иши раҳбари Ismoilova Z (фамилияси, исми, шарифи) _____ (имзо)

Топшириқни бажаришга олдим Dilmurodova Z (фамилияси, исми, шарифи) _____ (имзо)

Топшириқ берилган сана 2024 йил

Kirish
I Adabiyotlar sharhi
1.1 Benzimidazol guruhiga kirgan gijjaga qarshi dori vositalarining farmakologik xususiyatlari va qo'llanilishi haqida ma'lumotlar. 4-8
1.2 Albendazol dori vositasining organizmdagi farmakodinamikasi va farmakokinetikasi 9-13
1.3 Albendazol dori vositasining fizik kimyoviy xossalari va mavjud tahlil usullari 14-22
Xulosalar
II Tajriba qismi
2.1 Yupqa qatlam xromatografiyasi usulida albendazolni tahlil sharoitlarini ishlab chiqish 23-33
2.2 Albendazolni UB - spektrofotometriya usulida tahlil sharoitlarini o'rganish 34-40
2.3 Albendazolni ekstraksiyasiga organik erituvchilar tabiati va muhitning pH ko'rsatkichi ta'sirlarini o'rganish 41-44
2.4 Albendazolni ekstraksiyasiga ekstraksiya soni va elektrolitlarning ta'sirini o'rganish 45-47
2.5 Biologik suyuqliklardan albendazolni ekstraksiyalash sharoitlarini ishlab chiqish 48-58
2.6 Olingan natijalarning metrologik xisoboti 59-62
Xulosalar
Umumiy xulosalar 63-64
Adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Bugungi kunda dunyoda giyohvandlikning mingdan ziyod turlari uchraydi. Ularning ayrimlari virus tashish xususiyatlariga ham ega. Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 90% da giyohvandlik kasalligi mavjud. Tibbiyot statistikasining ma'lumotlari bo'yicha, organizmning mehnat jarayonlaridan boshqa barcha kasalliklar odam jismida o'rnashib olgan parazitlar tufayli yuzaga keladi. Inson tug'ilishidan umrining oxirigacha organizmda noto'g'ri turmush tarzi tufayli tushib qolgan parazitlar bilan ayovsiz kurash boradi. Kishi jismini oziqa manbai va yashash muhiti sifatida qo'llab olgan parazitlar ko'pgina jiddiy kasalliklarning kelib chiqish sababchisidir. Parazitlar bir marta odam organizmiga tushib, uni butun umr tark etmasligi va ichdan yemirib borishi mumkin. Odam gelmintlarining ayrim, qushlar, hayvonlar va o'simliklar gelmintlarining ham ko'pgina turlari ma'lum.

Respublikamiz hududlarida ko'pincha enterobioz, giminolepidoz, askaridoz, fitozifalyoz, tiniarinoz, exinokokkoz kabi odam gelmintozlari uchraydi.

Shu o'rinda mamlakatimizda ushbu kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan keng qamrovli tadbirlar xususida alohida to'xtalib o'tish joizdir. Sog'liqni saqlash vazirligi tashabbusi bilan Yahon sog'liqni saqlash tashkiloti hayriohligida "Jiyanlar xalos bo'lgan bolalar" halqaro dasturi doirasida ommaviy degelmintizatsiya tadbirlari o'tkazib kelinadi. Shuni ham aytib o'tish joizki, Sog'liqni saqlash vazirligining 2012-yil 9-avgustdagi 329-sonli "O'zbekiston Respublikasida aholining bolalar gelmintozlariga qarshi kurash bo'yicha strategik dasturi to'g'risida"gi buyrug'ida belgilangan ilgarishli vazifa va chora tadbirlar amaliyotda izchil tadbiq etib kelinmoqda.

Yuqorigi kunda jiyanlardan xalos etish maqsadida turli sintetik preparatlardan, jumladan, Respublikamizda ishlab chiqarilgan albendazol dori vositasidan keng foydalanib kelinmoqda. Bunday preparatlar organizmni jiyanlardan xalos etish bilan birga ayrim hollarda me'yoridan ortiq foydalanish natijasida kuchli zaharlanish holatlariga olib kelishi mumkin. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra albendazol dori vositasini biologik suyuqliklar tarkibidan ajratib olish va tahlil qilish usullarini takomillashtirish va mo'tadil usullarni ishlab chiqish hamda ularga ta'sir etadigan omillarni o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

## 1.1 Benzimidazol guruhiga kirgan giyohvand qarshi dori vositalarining farmakologik xususiyatlari va qo'llanilishi haqida ma'lumotlar

Benzimidazol hosilalari ustida XIX asrning o'rtalaridan olimlarimiz tomonidan bir qancha izlanishlar olib borilgan. Masalan, 1960 yilda Klopping H.L benzimidazol hosilalarini fungisid xususiyatiga ega ekanligini aniqlashga erishgan. Keyinchalik benzimidazol hosilalari tarkibidagi biologik faol moddalari ustida izlanishlar davomida turli xil tibbiyot dori vositalari va qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladigan pestisidlar sintez qilingan. Bu benzimidazol hosilalarining ikki xususiyati: fungisid hamda giyohvand qarshi vosita sifatida qo'llanilishi jahonda o'zining ahamiyatli o'rni bor ekanligini ko'rsatadi.

Jadvalda benzimidazol guruhiga kiruvchi birikmalarning tahlil qilinganlik tavsifi keltirilgan.

[17, 28, 29, 30]

Benzimidazol guruhiga kiruvchi birikmalar va ularning ishlatilishi

| № | | Kimyoviy nomlanishi | Preparatning nomlanishi | Ishlatilishi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | $RR_1$ $R_2 = H$ | Benzimidazol | | |
| 2 | $R = NH_2$; $R_1 = R_2 = H$ | 2-aminobenzimidazol | | |
| 3 | $R = CH_3$; $R_1 = H$ | 2-metil, 5-xlorbenzimidazol | Rozolan | gelmintsid stimulyator |
| 4 | $R = NHCOOCH_3$ $R_1 = CO-NH-C_4H_9$ | 1-butil karbonil-2-karbometoksi aminobenzimidazol | Benomil | sistemali fungisid |
| 5 | $R_2 = H$ | 2-benzilbenzimidazol | Dibazol | Tomirlarni kengaytiruvchi giyohlarga qarshi |
| 6 | $R = CH_2-C_6H_5$ $R_1 = R_2 = H$ | 5-fenil 2-karbometoksi aminobenzimidazol | Mebendazol | gelmintlarga qarshi |
| 8 | $R = NHCOOCH_3$ $R_1 = H$ $R_2 = COPh$ | 5-n-fenoksi-2 karboksiamino benzimidazol | Flubendazol | gelmintlarga qarshi |

Benzimidazol hosilalariga tiabendazol, mebendazol, fenbendazol, albendazol, oksfendazol, oksibendazol, kombendazol, parbendazol, flubendazol kiradi. Ushbu preparat guruhining dastlabki vakili tiabendazol avvaliga fungisid sifatida qo'llanilgan. Biroq keyinchalik uning antigelmint faolligi aniqlandi. Tiabendazol hayvon gelmintlariga qarshi kurashda yangi bosqichni ochdi. Keyinchalik shifokorlar ixtiyoriga mebendazol kirib keldi.

Benzimidazollar uchun suvda kam eruvchanlik, past zaharlilik nisbatan yuqori terapevtik samaradorlikka ega. Tasirlari keng spektrli antigelmint ta'sirga xos ekanligini bildiradi. Ular dorivor shakllarda qoyat chidamli bo'lib, uzoq vaqt farmakologik xususiyatlarini yo'qotmaydi. Ko'pgina preparatlar nafaqat odam va hayvonlar nematodozlarida balki ba'zi trematodoz va sestodozlarda shu jumladan pora zitning lichinka bosqichi bilan yuzaga keltiriladigan sestodozlarda ham samaralidir. Benzimidazollar nematoda va sestodalarning fumarat reduktaza fermentini ingibirlab ularning energiya almashinuvi buzilishiga va nobud bo'lishiga olib keladi. Mebendazol, albendazol, fenbendazol terapevtik samarani kuzatish sestodozlariga namoyon qiladi. Benzimidazollar, asosan ichishga beriladi. [17, 28, 21, 24]

Benzimidazoldan tashqari benzimidazol antigelmint preparatlar oshqozon-ichak traktida o'z darajada so'riladi. Preparatning o'zgarmagan qismi najas va siydik bilan odatda bir necha metabolit ishtirokida ajralib chiqadi. Preparatlar qo'llaydigan hayvonlarning o'rtacha va to'g'ri ichagida bir necha soatdan so'ng maksimal aniqlanadi. (30-45 kungacha) Faol gijjalarga benzimidazollar ta'sir mexanizmi ikkita jarayonga asoslangan:

- gelmintlar mitoxondriyalarida fumarat reduktaza fermentining ingibitorlanishi natijasida glyukoza so'rilishi buziladi
- tubulin oqsil sintezi ingibitorlanishi natijasida parazit hujayralari mikrotubulyar apparati buziladi (masalan golji apparati) Bu holat uning nobud bo'lishiga olib keladi. Nematodalar ichak epiteliy hujayralari ayniqsa sezgirdir. Ushbu mexanizm mebendazol uchun yagona hisoblanadi.

Gelmintlarda benzimidazollarga chidamlilik asta-sekinlik bilan ta'sirlanishga va tezroq shakllanib boriladi. Biroq nematodalarning ta'sirlanish shtammlari boshqa benzimidazollarga nisbatan sezgir bo'ladi Benzimidazolning bazi hosilalari antineoplastik va antiblastomogen xususiyatlarga ega. Quyida benzimidazol guruhiga kirgan ayrim gijjaga qarshi dori vositalarining turlari va ta'sirlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan. [13, 14, 19, 20, 23]

| Antigelmint-lar | Tarkibi | dozasi | ta'sir doirasi |
|---|---|---|---|
| Albin C | Praziquantel albindazol | 5 kg uchun 1 tabletka | Askarida unsinariya ankilostoma exinokokklar |
| Dirofen | Prantel finbindazol | 5kg uchun 1 tabletka | Askarida unsinariya ankilostoma, ring bntablar |
| Kanikvantel plyus | Praziquantel Finbindazol | 10kg uchun 1 tabletka | Askarida unsinariya ankilostoma exinokokklar |
| Poburkan | Oksibindazol Miklorazonid | 10kg uchun 1 kubikdan 40 mg oksibindazol 200 mg niklorazonid | Askarida unsinariya ankilostoma ring bntablar. |
| Praziqid | Praziquantel prantel Finbindazol | 10kg uchun 1 tabletka | Askarida unsinariya ankilostoma |
| Fibtal | Finbndazol | 3kg uchun 1 tabletka | Askarida unsinariya ankilostoma diniya |

1.2 Albendazol dori vositasining organizmdagi farmakodinamikasi va farmakokinetikasi

Albendazol dori vositasining organizmdagi farmakodinamikasi – Albendazol – ning ta'sirli doiraga ega gijjaga qarshi dori vositasi hisoblanadi. U gijjalarning ichak va tōqima turlariga ta'sir etib, parazitning turli kōrinishdagi (tuxumlari, lichinkalari) turlariga gijjaga qarshi ta'sir kōrsatadi. Albendazolni gijjalarning energetik balansida ōgir buzilishlarni keltirib chiqarishi natijasida adenozintrifosfataza va adenozindifosfataza nisbatining pasayishi kuzatiladi. Albendazolning asosiy ta'siri organizda mikrotubulyar faollikni ingibitorlash mexanizmi yotadi, ya'ni mikrotubuladagi tubulin pōlimerizatsiyasini buzilishi natijasida gijjaning metabolizmini buzilishiga va nobud bōlishiga olib keladi. Gijjalarga qarshi samaradorlik va fumarat reduktazani ingibitorlash va qolmintlarning moddalar almashuvi buzilishi bilan bog'liqdir. [18, 31]

Albendazol ichak parazitlari, jumladan nematodalarning (Ascaris lumbricoides, Trichiurus trichiura Enterobius vermicularis, Ancylostoma duodenale, Necator americanus, Strongiloides stercoralis,

Eutamous Sowa Migrans) sistodolarning (Hymenolepsis nana, Taenia solium, Taenia saginata), trematodolarning (Opisthorchis viverrini, Clonorchis sinensis), soddaklarning (Giardia lamblia (intestinalis i duodenalis) turlariga ta'sir ko'rsatadi. Albendazol, shuningdek to'g'ma parazitlarga jumladan exinokokklarga (Echinococcus granulosus i Echinococcus multilocularis) turlari ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

Albendazol dori vositasining organizmdagi farmakokinetikasi. Albendazolni insonlar og'iz orqali qabul qilganda uni oshqozon ichak traktida qisman absorbsiyalanishi (5%) aniqlangan. Uni qon plazmasida o'zgarmagan holda aniqlab bo'lmaydi. Chunki u jigarda tez metabolizmga uchrab, birlamchi metabolit albendazol sulfoksidga aylanadi. Metabolitlarni asosan o't suyuqligi yordamida ichak orqali, kam miqdorda peshob orqali chiqariladi. Albendazolni yog'li ovqatlar bilan istimol qilinganda uning so'rilishi 5 dan baravarga oshadi. 70% miqdori qon plazmasida oqsillar bilan bog'lanib, deyarli barcha organlarga tarqaladi. [4, 13, 14, 15, 30]

Shu sababli preparatni pishobda, ol pufagida, jigarda aniqlash mumkin.

Mo'lumotlarga kora Pelatour va boshqalar (1991) albendazolni tegishli ravishda 5.0; 7,5 va 10 mg/kg dozada olgan 3 ta goy, 3 ta ichki 3 ta yirik qoramolda albendazol metabolitlarining xarakatini organdi. Qon namunalari preparat yuborilgandan song 48 soatda olindi. Sulfoksid metabolitining antigulubliklik nisbati suyuqlik xromatografiyasi usuli bilan aniqlanar edi. Musbat va manfiy (+) va (-) sulfoksid konsentratsiyasi nisbati goylarda 3, ichkilarda 1,5 va yirik qoramolda 4,0 ga teng bolgan. Shundan song, enantiomer ulushi oshib borgan. Sulfoksid enantiomerining eng kop chiqishi jigardagi (+) maydon goylarda 88%, ichkilarda 80% va yirik qoramolda giz. ni tashkil qildi. Sulfoksid ikkita enantiomerining organga xos harakati oksidlanishi jarayoniga goshilgan adenozindinuklotidlar va fermentli tizimlarning sikliviligi natijasi bolib xisoblanadi

C. A. Virasinghe va boshqalar (1992) albendazol va uning metabolitlarining suvli muhitdagi fotodiradasiyasini organdi. [4, 26, 27]

Albendazol va uning metabolitlari jadvalda siyosi aniqlandi. Preparatning 50 % 0,01 ± 0,01 soat mobaynida biriktiriladi. Binobarin preparat suvli muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oqsil va yirik qoramol jigari xujayralari mikrosomalarida albendazol oksidlanishi jarayoni (in vitro) solishtirma nuqtai nazaridan o'rganib chiqilgan. Ushbu jarayon qoy jigari xujayralarida tezroq sodir bo'lishi aniqlandi. (C.E. Lanusse va boshqalar 1993)

Terapevtik dozalar va yuborish yo'llari: Primatlarda va sistodalarda qarshi ta'sirchan terapevtik dozalar 7,5 - 10 mg/kg primatlarga qarshi - 20 mg/kg ga teng. Preparat ichga odatda bir martalab yuboriladi. Bunda preparat ta'siri bir necha oy mobaynida saqlanadi. Radioaktiv uglerod bilan nishonlangan albendazol yuborilgandan so'ng uning qoldiqlari 45 sutkadan ortiqroq hayvonlarning a'zolari va to'qimalarida aniqlanadi. [7, 11, 13, 21]

Zaharlilik va nojo'ya ta'sir. Kalamushlar uchun zaharli doza 500 mg/kg. Kalamushlar uchun LD50 (o'limga olib boruvchi doza) og'iz orqali yuborilganda 2400 mg/k.

Terapevtik dozalarni 5 va undan ortiq dozalarda albendazol qisqa muddatli va uy hayvonlarida zaharlanish belgilari: ich ketish, anoreksiya, ataksiya, koma, isitmaga sabab bo'lishi mumkin. Preparat terapevtik dozalarda qo'llanganda sog'lom hayvonlar nobud bo'lishi hollari qayd qilingan. Uzoq vaqt qo'llanilganda, kalamushlar uchun 7 mg/kg va sichqonlar uchun 25 mg/kg dan oshgan bir sutkalik dozalarda u kamqonlik, leykopeniya mayda digenerasiyasi, gepatosit va kuobrazi yosini yuzaga keltiradi. [7, 33, 34]

Terapevtik do'zining asosiy ko'rinishi bosh suyagi, umurtqa va buyrak sohasida yuz bergan. Albendazolning teratogen ta'siri laboratoriya hayvonlari, xususan, ing sichqon bolgan kalamushlarda aniqlangan. CVHP ma'lumotlariga ko'ra, hayvonlar (uy go'yoni) uchun eng xavfsiz bir sutkali 5 mg/kg qabul qilingan dozа va 1000 xavfsizlik koeffitsientiga tayangan holda inson uchun yo'l qo'yilgan bir sutkalik doza 0,005 mg/kg ni tashkil qiladi.

## 1.3 Albendazol dori vositasining fizik-kimyoviy xossalari va mavjud tahlil usullari

Kimyoviy nomi: 5-(propiltio)-1n-benzimidazol-2-il karbamat

Xalqaro nomi: Albendazol

Brutto formulasi: $C_{12}H_{15}N_3O_2S$



Fizik kimyoviy xossalari: Suvda va ko'pgina organik erituvchilarda erimaydigan kukun. Dimetilsulfoksid va sirka kislotasida yaxshi eriydi, xloroformda yaxshi eriydi.

Molekulyar og'irligi – 265,3

Erish harorati – 193-198 °C (boshqa ma'lumotlarga ko'ra 208-210 °C)

Sinonimlar: ekzol, brevoltin, valbazen.

Albendazolga yaqin bo'lgan modda albendazol sulfoksid bo'lib, antigelmintik sifatida xuddi albendazol kabi dozalarda qo'llanadi. Albendazol sulfoksidning farmakologik va toksikologik xususiyatlari deyarli albendazol singaridir. [33, 34, 35]

# Дори шакллари

Albendazolni erituvchilarda eruvchanligi

| № | ERITUVCHI | ERUVCHANLIGI | № | ERITUVCHI | ERUVCHANLIGI |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Suv | Erimaydi | 9 | Sirka kislota 10% | Oz eriydi |
| 2 | Sirka kislota (kons) | Eriydi | 10 | Geksan | Oz eriydi |
| 3 | Sulfat kislota (kons.) | Oz eriydi | 11 | Dixlor etan | Erimaydi |
| 4 | 0.1 N xlorid kislota | Eriydi | 12 | Dioksan | Oz eriydi |
| 5 | 0.1N NaOH | Erimaydi | 13 | Efir | Oz eriydi |
| 6 | Toluol | Erimaydi | 14 | Xloroform | Oz eriydi |
| 7 | Geptan | Erimaydi | 15 | Nitrat kislota (10%) | Oz eriydi |
| 8 | Propanol | Erimaydi | | | |

Albendazolning mavjud tahlil usullari.
Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga kora benzimidazol hosilalari biologik obyektlardan (jigar, opka va boshqalar) ajratib olish-da ekstraktsiyalash bilan ekstraktsiya qilingan Olingan ajratmani ballast moddalardan tozalash maqsadida turli sharoitlarda ikki fazali eruvchilar yordamida tozalab olingan Tozalangan ajratma spektrofotometrik usulda 281 nm tolqin uzunligida optik zichligi aniqlangan. Usulning sezgirligi 0,1 mg/kg tashkil qilgan Ammo ishlab chiqilgan uslublarning olib borilishida eritmaning pH muhiti elektrolitlarning ta'siri togrisida malumot keltirilgan

Yupqa qatlam xromatografiyasining benzimidazol hosilalari tahlil qilishda qollash holatlari ham adabiyotlarda kop-lab keltirilgan. Yupqa qatlam xromatografiya adsorbsiya xromatografiyaning turlaridan biri bolib ajraluvchi komponentlarning sorbent yuzasidan ushlanish xususiyatlariga asoslanadi
Shunga kora bu usulni modda qoldiqlarini tahlili uchun tadbiq etish muhim ahamiyatga ega. [1, 3, 23]

Moddalarning Yu. Q. X tahlilida adsorbent

sifatida eng kop qollanadigan qozgalmas fazalar silikagel va alyuminiy oksid ki-soblanadi.

Adabiyotlarda keltirilgan mo'lumotlarda binazimidazol hosilalarini yupqa qatlam xromatografiya tahlilida sorbent sifatida silikageldan va qozgaluvchi fazalar etilasetat - benzol - metanol (50:30:10) va benzol - asiton (30:10) aralashmalaridan foydalanganlar. Ochuvchi reaktivlar sifatida esa UB tog'risidagi mo'lumotlar bayon etilgan.

Shuningdek benzimidazol hosilalarini yupqa qatlam xromatografik tahlilda yana bir necha eruvchilar sistemasi: etilasetat-etanol 25% ammiakdan (60:10:10:2) foydalanilgan. [1, 3, 25]

Tuzlardan albendazolni aniqlashda yuqorida keltirilgan usullardan flyuorestsent detektorli yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, yupqa qatlam xromatografiya va boshqa usullardan foydalanilgan. Masalan: albendazol va uning metabolitlari 0,1 mg/kg dan kamroq konsentratsiyada tekshirilayotgan togimaning kislotali gidrolizi 6N HCl natriy karbonati bilan neytrallash etilasetat bilan

ekstraksiyani ōz ichiga oladigan albendazol va uning metabolitlarini aniqlash uchun yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usuli ishlab chiqilgan. Namunani 1M HCl yordamida ajratib olinadi, $Na_2CO_3$ yordamida neytrallashtiriladi va toluol bilan ajratiladi. Suvli faza usluncha (kolonka) da oksidlovchi ta'sirlanadi. Yaxshilab quritilgan qoldiq metanolda eritiladi va tekshiriladi. Usulning sezuvchanligi 0,05 mg/l ga teng. Tahlilning eksport usuli bōlib albendazol hosilalarining xromato-mass-spektrometriya d-butil-dimetilsilil hosilalarini hosil qilishga asoslangan. Preparat va uning asosiy metabolitlari (albendazol sulfoksidi, sulfon, gidroksipropilsulfon va 2-aminosulfon) atsetonitril bilan yaxshi ajratiladi. Ferment gidrolizi aniqlanayotgan moddalar miqdorini oshiradi. Uning eng yuqori konsentratsiyasi jigarda aniqlanadi. Ferment gidrolizi aniqlanayotgan moddalar miqdorini oshiradi. Uning eng yuqori konsentratsiyasi jigarda aniqlanadi. FDU ma'lumotlariga kōra albendazol qoldiqlarining maksimal yōl qōyilgan darajalari muskul tōqimasi uchun 0,8 mg/kg jigar, yog' buyraklar uchun 1,2-3 mg/kg ga teng (tōqima va hayvon turiga kōra). CVHP ma'lumotlariga kōra al-

Benzimidazolning maksimal yol qo'yilgan darajalari sut, go'sht, yog' jigarda 0,1 mg/kg buyraklarda 0,5 mg/kg ga teng. [27,28]

Albendazol qoldiqlari va uning metabolitlari uchun nazorat moddasi bo'lib 2-aminosulfon albendazol hisoblanadi. Bunda 0,05 mg/kg ga teng bo'lgan 2 aminosulfon konsentratsiyasi albendazol qoldiqlari va uning metabolitlari summasining 3 mg/kg ga to'g'ri keladi. Nazorat organi bo'lib jigar hisoblanadi. Albendazol qo'llangandan so'ng kutishning hisob kitob davri 27 sutkaga (go'sht, go'ylar va yirik qoramol) va 1-5 sutkaga (sut, go'ylar va yirik qoramol) teng. Spektrofotometriya tahlil usuli bajarilishi nisbatan oson bo'lib, yuqori aniqlik (xatolik 3% dan oshmaydi) va sezgirlikka (0,1 - 10 mkg/ml) ega bo'lgan usullardan hisoblanadi [30].

Benzimidazol hosilalarini UB-spektrofotometriya usulida aniqlashga oid ma'lumotlar adabiyotlarda ko'plab keltirilgan. UB nur sohasida elektron spektrlar benzimidazol hosilalarini o'zgarishida keng qo'llaniladi. Benzimidazol hosilalari 242-245 nm to'lqin uzunlikdagi oraliqda yutilishning qisqa to'lqinli chiziqlari elektronlarni o'tishiga tegishli, 275-287 nm uzun

to'lqinli yutilishi uso omid halqasi bilan modifikatsiyalangan benzimidazolning β-oril almashinishi bilan bog'liq. Imidazol halqasiga biror omil guruhi birikso ushbu yönalishda kichik batoxrom siljishi böladi B.P va C-oril aralash-gan imidazol hosilalari 250-300 nm to'lqin uzunligida intensiv chiziq hosil böladi. Bu ikkala aralashma halqani ham qamrab oluvchi elektron almashinuvi bilan tushuntiriladi

Albendazolni turli obyektlardan, shu jumladan biomaterиallardan ajratib olish va tozalashga bag'ishlangan ma'lumotlar adabiyotlarda köplab keltirilgan. Ammo keltirilgan tahlil usullarida ekstraksiya jarayoniga ta'sir qiluvchi ekstragent tabiati ekstraksiya soni PH muhiti va elektro-litlarning ta'siri kabi omillar öganilmagan.

Shundan kelib chiqib ekstraksiya jara-yoniga ta'sir qiluvchi bir qancha omillar ta'sirini eliborga olish tavsiya qilinadi. Tanlangan ekstraksiya va tahlil sharoitlari taksikologik kimyo nuqtai nazaridan tekshirilgan hamda bara-langan bölishi lozimligi ta'kidlanadi [1, 5, 8]

Albendazolning turli ashyolar tarkibidan ajratib olishning mavjud usullari bir ti-zimga keltirilmagan va yuqorida keltiril-gan omillarning ta'siri inobatga olinmagan. Bu esa

olingan natijalarning bir biridan farq qilishi va xulosalar turlicha bo'lishiga olib keladi. Adabiyotlarni qiyosiy o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Xulosalar:

1 Albendazol dori vositasidan noto'g'ri foydalanish xollarida zaharlanishlar kelib chiqishi mumkinligini inobatga olish lozim. Preparat bilan zaharlanish holatlari patologo-morfologik nuqtai nazardan xarakterli emasligi uni kimyo-toksikologik tahlil yordamida tasdiqlashni taqozo etadi.

2. Albendazolni turli biologik ashyolar tarkibidan aniqlashning Yu.Q.X sharoitlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Yu.Q.X usuli uchun albendazolga xos spesifik hamda sezgir ochuvchi reaktiv tanlash lozim bo'ladi.

3 Biologik ashyo tarkibidan ajratib olingan albendazolni bir muncha sodda UB spektrofotometriya usulida tahlil qilish sharoitlari ishlab chiqilmagan va amaliyotga tadbiq etilmagan.

4 Albendazolni turli ashyolardan jumladan, biologik obyektlar va suyuqliklardan ajratib olish sharoitlarini o'rganib eng qulay, eng mo'tadil sharoitlarini ishlab chiqish lozim.

## 2.1 Yupqa qatlam xromatografiyasi usulida alkaloidlarni tahlil sharoitlarini ishlab chiqish

Yupqa qatlam xromatografiya usulining soddaligi, yuqori darajada sezgirligi qo'llanish sohasining kengligi tufayli hozirgi kungacha amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Aksincha, usul sud kimyo va kimyo-toksikologik tahlillarda bir tomondan modda chinligini aniqlovchi usul sifatida ikkinchi tomondan, biologik obyektlardan olingan ajratmalarni tozalash va boshqa moddalar, jumladan metabolitlaridan ajratish uchun qo'llanilishi ma'lum. Bu esa mazkur tahlillarda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek usul nafaqat moddalarni xromatografik ajratishi, balki ularni miqdorini ham qisman aniqlashga imkon berishi bilan ajralib turadi. [22, 25]

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, yupqa qatlam xromatografiya usulida tahlil sharoitlarining ishlab chiqish ahamiyatga molik vazifa ekanligi ma'lum bo'ladi.

Alkaloidlarni yupqa qatlam xromatografiya usulida tahlil qilish haqidagi ma'lumotlar adabiyotlarda keltirilgan.

Ammo mavjud uslublarning sirg'irligi va xususyligi o'rganilmaganligi ham ularni amaliyotga tadbiq etishga monelik qiladi. Shu munosabat bilan, albendazolni yupqa qatlam xromatografik tahlil sharoitlarini ishlab chiqish maqsadida mavjud uslublar takomillashtirildi va yangi qulay sorbir hamda mobadil sharoitlar ishlab chiqildi.

Yupqa qatlam xromatografiyasida moddalarni taqsimlash va biz biridan ajratishga erituvchilar aralashmasini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tanlangan organik erituvchilar aralashmasi ushbu modda uchun sifat ko'rsatkichini (Rf qiymati bo'yicha) aniqlashda va yot moddalardan tozalashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek yupqa qatlam xromatografiya usulida moddalar tahlil qilinganda ularning Rf qiymatlari 0,4 - 0,8 oralig'da bo'lishi tavsiya etiladi va bunga organik erituvchilarni turli nisbatlarda qo'llash orqali erishiladi. Ishning keyingi bosqichida organik erituvchilar va ularning aralashmalarida albendazolni sorbent yuzasida qo'zg'alishi tekshirildi.

Tajribani olib borishda xromatografik plastinkada moddani to'plangan joyini aniqlash maqsadida har xil kimyoviy reaktivlardan

foydalanildi. Yupqa qatlam xromatografiya usulida tahlilni olib borish uchun „Silufol-254" plastinkalarining start chizig'iga 1 mg/ml saqlagan albendazolni etanol kislotadagi eritmasidan 0,1 ml dan tomizilib, xona haroratida quritildi. So'ngra bir nechta organik erituvchilar aralashmasi solingan xromatografik kameralarga plastinkalarni tushirib, erituvchilar aralashmasi 10 sm balandlikka ko'tarildi va finish chizig'iga yetganida plastinkalar olinib xona haroratida quritildi. Tajribani olib borishda xromatografik plastinkalarda moddani ko'tarilgan joyini aniqlash maqsadida turli xil ochuvchi reaktivlardan foydalanildi. Bulardan UB nurlari (pushti binafsha) Dragendorf reaktivi (sariq-qo'ng'ir) yordamida rangli dog'lar hosil bo'lishi kuzatildi. Xromatografik plastinkada albendazol dori moddasini tahlilida erituvchilar sistemasi va ochuvchi reaktiv tanlab olinadi [3, 12, 26, 27, 31]

Albindazolni chin ligini yupqa qatlam xromatografiyasi usulida aniqlashda foydalanilgan organik erituvchilar aralashmasini tanlash natijalari:

Jadval 1.

| № | Organik erituvchilar aralashmasi | Rf kattaligi |
|---|---|---|
| 1 | Xloroform – etanol – chumoli kislota (4:0,5:1) | 0,70 – 0,72 |
| 2 | Xloroform – etanol – chumoli kislota (8:1:1) | 0,66 – 0,68 |
| 3 | Xloroform – etanol – sirka kislota (8:2:1) | 0,28 – 0,30 |
| 4 | Geptan – sirka kislota (15 : 0,1) | 0,22 – 0,24 |
| 5 | Xloroform – efir – sirka kislota (4:1:1) | 0,28 – 0,30. |
| 6 | Xloroform – efir chumoli kislota (4:1:1) | 0,30 – 0,34 |
| 7 | Geksan – xloroform sirka kislota (4:1:1) | 0,32 – 0,34 |
| 8 | Geptan – sirka kislota (4:1) | 0,22 – 0,24 |
| 9 | Geksan – xlorid kislota (4:1) | 0,16 – 0,18 |
| 10 | Benzol – etanol (9:1) | 0,24 – 0,26 |
| 11 | Geptan – 25% ammiak eritmasi (9:5) | 0,32 – 0,34 |
| 12 | Benzol – chumoli kislota – sirka kislotasi (4:2:1) | 0,30 – 0,32 |

Bunda hosil bölgan dağlarning Rf qiymatlari aniq-landi. Olib borilgan tahlil natijalari jadvalda keltirildi. Jadvalda keltirilgan natijalarga asosan albendazolning xromatografik usulida tahlili olib boishda foydalanilgan organik erituvchilar sistemasidan xloroform - etanol - chumoli kislota (2:1:1) nisbatdagi erituvchilar aralashmasi maqsadga muvofiq deb topildi. Unda albendazolning Rf = 0,66.-0,68 qiymat oraligida dasdiqlab olishga erishildi.

Xromatografiyalashda moddani aniqlovchi reaktivlarning ushbu modda uchun sezgirligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan yuqorida tavsiya etilayotgan tahlil usullarining albendazol uchun sezgirligi va xususiyligi öreanildi. Xromatogrammadagi albendazol dağlarining joylashgan örnini aniqlashda yuqorida qöllanilgan reaktivlardan foydalanilib, ularni moddaga nisbatan sezgirligi öreanildi. Buning uchun albendazolning standart namunasi eritmasidan konsentratsiyasi kamayib boruvchi bir qator ishchi standart eritmalar tayyorlandi. Mazkur eritmalardan namunalar mikroshprits yordamida xromatografik plastinkaning standart chizigiga bir biridan 1 sm uzoqlikda 0,4 - 0,5 sm kenglikda doira shaklida tomizilib xloroform - etil spirti - chumoli kislotasi (2:1:1) saqlagan organik erituvchilar ara-

koshmasida xromatografiyalanib, so'ngra tavsiya ishlatayotgan kimyoviy reaktivlar purkab ko'rildi. Bajarilgan tahlil natijalari jadvalda keltirilgan.

Albendazolni aniqligini yuqqa qatlam xromatografiyasi usulida aniqlashda dog' hosil qiluvchi reaktivlarni tanlash va sezgirligini aniqlash natijalari:

| Tahlil uchun olingan modda miqdori mkg | Dog' hosil qilish uchun foydalanilgan reaktivlar | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | UB-nurida tovlanish | Dragendorf reaktivi | Yod bug'i | Bromfenol ko'k | Brom bug'i | Bushard reaktivi |
| 100 | + | + | + | + | + | + |
| 80 | + | + | + | + | + | + |
| 60 | + | + | + | + | + | + |
| 40 | + | + | + | + | + | + |
| 20 | + | + | + | − | + | + |
| 10 | + | + | + | − | − | + |
| 8 | + | + | + | − | − | + |
| 6 | + | + | + | − | − | + |
| 4 | + | + | + | − | − | − |
| 2 | + | + | − | − | − | − |
| 1 | + | − | − | − | − | − |

Dorini yo'qotishda UB-nurida tovlanish eng sezgir deb topildi.

Tajribaning keyingi bosqichida alkaloidlarning chinligini aniqlashda Yu.QX tahliliga sorbentlarning tasiri o'rganildi. Buning uchun "Silufol 254" "Silikagel" sorbenti saqlagan xromatografik plastinkalardan foydalanildi. Silikagel (13% gips saqlagan) sorbenti saqlagan xromatografik plastinkalar quyidagi adabiyotda keltirilgan tartibda tayyorlandi. [12] Xromatografik plastinkalar xona haroratida quritildi va 105°C da sodiga davomida qurutish jarayonida aktivlandi. Tayyor bo'lgan silikagel plastinkalar tahlilgacha maxsus idishlarda eksikatorlarda saqlandi. Tahlilni bajarish uchun plastinkalarni start chizig'iga 1mg/ml alkaloidlar saqlagan chumoli kislotadagi eritmasidan 0.1 ml kapillyar nay harorati da qo'yildi. So'ngra (xloroform-etilspirti-chumoli kislotaning (8:1:1) aralashmasi solingan va ularning bug'i bilan to'yintirilgan xromatografik kameralarga plastinkalarni tushirib xromatografik jarayon olib borildi. Xromatografik plastinkada moddalar harakatlanib to'plangan joyini aniqlash maqsadida UB nuri so'ngra Kunc bo'yicha modifikatsiyalangan Dragendorf reaktividan foydalanildi.

Bajarilgan tahlil natijalari jadvalda keltirilgan.

## Альбендазолни ЮҚХ таҳлил усулида сорбентларнинг таъсирини ўрганиш натижалари

| Модда номи | ЮҚХ таҳлилида қўлланилган сорбентлар ва олинган Rf қийматлар | |
|---|---|---|
| | *Силуфол УБ – 254* | *Силикагель* |
| альбендазол | 0,66-0,68 | 0,58-0,60 |

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Silufol UB-254 va laboratoriya sharoitida tayyorlangan "Silikagel" saqlagan xromatografik plastinkadan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

Murakkab tarkibli aralashmalarni Yu.Q.X usulida tahlil qilinganda tekshirilayotgan moddaga xos sharoitlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'tkazilgan tajriba natijalari aynan tekshiriluvchi moddaga xos ekanligi va boshqa birikmalar tekshiruv natijalariga halal bermasligi ham tahlillarda katta anamiyatga ega. Bunda xromatografik plastinkadagi tekshirilayotgan moddaga dog' hosil qiluvchi reaktivlar purkalib hosil bo'lgan dog'ning rangi va Rf qiymati bilan farqlanishi lozim. Chunki o'xshash Rf qiymatlari noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan albendazol uchun tahlil etilayotgan tahlil sharoitlarini xususiyligi o'rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Albendazolni yupqa qatlamli xromatografiya usulida xususiyligini o'rganish maqsadida tajribalar sud-kimyo va kimyo toksikologiya laboratoriyalarida ko'p qo'llaniladigan ikki xil: Silufol UB-254 va silikageldan (15% gips saqlagan) tayyorlangan xromatografik plastinkada olib borildi.

